

Tilshunoslikda giargo, jargon va sleng atamalarining o‘zaro o‘xhashliklari va farqli jihatlari

**Xolmatov Shaxriyor
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
Sheraliyeva Mohinur
Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikdagi o‘zaro yaqin atamalar, ya’ni - argo, jargon va sleng haqida umumiylar ma'lumot, ularning o‘xhash jihatlari va farqli taraflarini ochibberadi

Abstract: This article provides an overview of the closely related linguistic terms slang, slang, and their similarities and differences.

Аннотация: В данной статье представлен обзор тесно связанных лингвистических терминов сленг, сленг, а также их сходства и различия.

Kalit so‘zlar: argo, jargon, sleng

Key words: argot, jargon, slang

Ключевые слова:арго, жаргон, сленг.

Tilning unumdoorligi so‘zlashuv jarayonida til birliklaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish orqali yuzaga chiqadi. So‘zlovchining tinglovchig ao‘zqarashlari, fikrlarini yetkazib berish uchun tanlagan so‘zlarining darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, faolso‘zlar - kundalik ravishda insonlar tarafidan keng foydalanadigan so‘zlar bilan yoki ayni bir davra, bir guruhgina tushunadigan va faqat shu guruh insonlari tez tez nutqida qo‘llaydigan jumlalar. Ayni shu jumlalararga va jargon nomlari ostida sinonim degan fikr paydo bo‘lgan va haligacha mavjud. Bu kabi terminologik chalkashliklar XVI asrdan beri o‘rganib kelinmoqda. Ular haqida batafsil tushunchalar hosil qilmaslik lisoniy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Argo - (fr argot -jargon) Yasamatil. Birorijtimoiyguruh, toifaning(masalan, talabalar, sportchilar, o‘g‘rilarva b.) o‘ziga xos boshqalar tushunmaydigan leksik birliklardan iborat yasama til. Va hozirgi o‘zbek tilida bunday so‘zlarga sotsial-

chegaralangan so‘zlar nomi berilgan. Pinxasov o‘z maqolasida "Argo ma'lum sotsial kishilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlardir" [3:44] deya argoga ta'rif bergen.

Jargon (fr.Jargone -ma'lumbirguruhgaoiido‘z) Birorijtimoiyva professional guruhlarga xos, faqat ularning o‘zi tushunadigan va adabiy tildanfarq qiladigan so‘z va ibora jargonlardir [1:94]. Jargon sun'iy shartli so‘z bo‘lib , o‘zaro so‘zlashuv jarayonida tinglovchini o‘zidan past o‘rinda ekanini ifodalash uchun ishlataladi. Jargonlar,aslida "yuqortabaqa" kishilar nutqiga xos bo‘lib, tor doirada qo‘llaniladigan "sinfiydialektlar" ular ommaga tushunarsiz va umumxalq tiliga yotdir.

Sleng- ijtimoiy yoki professional jihatdan mustaqil guruh yozushi: jargon. Adabiy til normasiga mos kelmaydigan (odatdaifodarangli) so‘zlardan foydalanadigan til. Sleng-G‘arb tilshunosligi an'analariga xos atama sanaladi. Sleng atamasiga haligacha aniq ta'rif berilmagan Sleng so‘zining qachon paydo bo‘lgani aniq emas, lekin u ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o‘sha davrda "haqarat ma'nosinia nglatgan. Turli lug‘atlarda va sotsio lingvistikaga oid adabiyotlarda uning jargon (guruh jargon, yoshlarjargoni) terminiga yaqin turishi qayd etilgan .

Shu o‘rinda , aytib o‘tish joizki , ular nega bir xil ma'noda degan tushuncha xosil bo‘lgan? Dastlabargo termini XV asrda ingliz va fransuz tilida qo‘llanila boshlagan degan qarashlar yo‘q emas. Ayni shu davrdan boshlab, ya'ni insonlardagi tushuncha yetarli bo‘lmaganidan va qolaversa , ba'zi xalqlarga bu tarzdagi so‘zlarni bir xil atash ma'qul bo‘lganligidan hozirga qadar ularni nomlarini ajratib olishda anglashilmovchilikla rmavjud. O‘zbektilida ham bu turdagи so‘zlar o‘tgan asrlarning 80-yillarigacha lug‘atlarda mavjud bo‘lmadi bundan ko‘rinib turibdiki, davlatimizda ingliz tili rivojlanishni boshlamaguncha og‘zaki nutqda ham qo‘llanilmagan. Keyinchalik izlanishlar natijasi o‘laroq argotik lug‘atlar yaratildi, foydalaniladigan adabiyotlar ko‘paydi .

Yuqoridakeltirilganuchterminharo‘rindaqo‘llanilmoqda,
ma'nojihatdansinonimgatenglashtirilganushbuso‘zlarnitahlilqilibularningqisqach
aishlatilishihaqida, aniqroqqilibaytsak, u haqidagi qarashlarni o‘zgartirish

maqsadida bir qancha nazaryalarga asoslanib avval ularning o‘xhash jihatlari, so‘ngra tafovutlarini ko‘rib chiqamiz

1.Argolarda sinfiy tabaqalanish bo‘lmaydi, shu bilan birga ular ommaga tushunarli emas, va ayni shu jihatdan argolar jargonga o‘xhash bo‘ladi .

2.Jargon, sleng va argodagi umumiy xususiyat bu aynan jamiyatdagi bir guruh vakillariga tegishli va jamiyat a'zolaridan ma'lum darajada ajralib turishidir.

3. Argo , jargon va slengning o‘xhash taraflaridan yana biri norasmiy nutqqa mansub ekanidadir. [4:68]

Tafovutlarning bir qator ro‘yxati :

1. Ma'no jihatdan, to‘xtalib o‘tsak, argo – biror ijtimoiy guruh, toifaning o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan leksik elementlardan iborat yasamatildir. Jargon esa biror guruh vakillarining o‘znutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida o‘zicha mazmun berib ishlatiladigan so‘z vai boralardir

2. Keyingi farqli jihatlardan biri shuki, argoni jargondan ajratib turuvchi omil buundagi maxfiylik darjasи ortiqligi va argodan foydalanuvchilar guruhi tor doiradagi quyimadaniyat vakillaridan tashkil topganligidir . Sleng esa aksariyat yoshlar nutqida qo‘llaniladi.

3. Slengning argo va jargondan faqri uning eng ko‘p omma orasida keng qo‘llanilishi

4. Jargonning qolgan ikki atamadan farqlashda uni maxsu ssoha, ya'ni mutaxassislik bilan bog‘likligi va rasmiy nutqda ham mavjudligi asos qilib olinadi.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek tilshunosligida yuqoridagi terminlarning ochilmagan taraflari sana sa arzigulik, bu atamalarni o‘rinli qo‘llash borasida yoshlarga asos bo‘la oladigan ma'lumotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Kelgusida sifatli ta'lim va uning unumli samarasi uchun ushbu sohadagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – биринчи жилд. –Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006. –б 94.
2. Сатимова Д. Инглиз ва ўзбек ёшлар сленгининг қиёсий таҳлили: Автореф. Д-ра дисс.филол.наук. –Андижон., 2020
- 3.ПИНХАСОВ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. ЛЕКСИКОЛОСИЯ ВА ФРАЗЕОЛОГИЯ. –Т, Ўқитувчи, 1969. –б. 44
- 4.HojiyevA.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati._Toshkent:"O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002.-B. 168